

Chakana kreditlash qo'mitasining
2026 yil "30" apreldagi
2026-24 - sonli
majlis bayoniga 2-sonli ilova

KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

Kredit mahsulotining turi va nomi	Mikroqarz "Imkon"
Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi/Kafilga qo'yiladigan talablar	O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan rasmiy daromadga ega jismoniy shaxs.
Mikroqarz valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm
Mikroqarz miqdori	100.0 mln. so'mgacha
Mikroqarz maqsadi	Maqsadsiz
Mikroqarz muddati	Imtiyozli davrsiz, 60 oy muddatgacha
Taqdim etish shakli	Qarz oluvchining «Asia Alliance Bank» ATBda ochilgan so'm plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali
Foiz stavkasi	12 oy muddatgacha – 21,0 %; 24 oy muddatgacha – 23,0 %; 36 oy muddatgacha – 25,0 %; 60 oy muddatgacha – 26,0 %.
Mikroqarz ta'minoti	<ul style="list-style-type: none">Mazkur kredit 60 oy muddatgacha taqdim etilganda, mikroqarzning 125 foizidan kam bo'lmagan miqdorda uchinchi shaxs kafilligi yoki likvidli mol-mulk garovi qabul qilinadi;* Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga 36 oydan ortiq muddatga ajratiladigan mikroqarz bo'yicha ta'minot mikroqarzning 130 foizidan kam bo'lmasligi lozim.Mikroqarz ta'minotsiz shartlarda 36 oy muddatga qadar ajratiladi.
Talab etiladigan hujjatlar	A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.); B) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar; D) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda); E) Bankning mas'ul xodimlari tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto sur'atlari bilan (kredit mol-mulk garovi asosida ajratilganda). Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Daromadlarni aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni tasdiqlovchi hujjatlar qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi.
Mikroqarzni qaytarish tartibi	Annuitet yoki differensial to'lov usulida.

Qo'shimcha shartlar

- Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi/Kafilning qarz yuki ko'rsatkichi 50 foizdan oshmasligi lozim;
 - Qarzning daromadga nisbati ko'rsatkichi 8 barobardan oshmasligi lozim;
 - Mikroqarz ta'minotsiz shartlarda ajratilganda qarz oluvchini baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urtalash bo'yicha mikroqarzning 125 foizi miqdorida sug'urta polisi talab qilinadi;
 - Mikroqarz uchinchi shaxs kafilligi bilan ajratilganda, skoringdan o'tish bali 490 ball;
 - Mikroqarz ta'minotsiz shartlarda ajratilganda, skoringdan o'tish bali 462 ball;
 - Kredit byurolaridan olingan so'nggi 3 yil muddatdagi kredit tarixi ijobiy bo'lishi lozim. Bunda,
 - 30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi;
 - 60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi;
 - 90+ yo'l qo'yilmaydi.
- * Ushbu shartlar asosida kredit ajratish bo'yicha qaror qilish vakolati Kreditlarni ma'qullash boshqarmasi Jismoniy shaxslar andarraytingi bo'limiga beriladi.